

Bebaho toshcha
(Bulg'or xalq ertagi)

Men sizlarga Pavel boboning bebaho toshchasi haqidagi ertakni aytib beray. Pavel bobo cho'pon bo'lgan ekan. Bolqon tog'larida uning qo'shari, ya'ni qo'rasi bo'lib, kechasi unga o'ntacha sovliqni qamab qo'yar ekan. Pavel boboning sopol tomli kulbasi, kulbasida qoramosh mushugi-yu jajjigina kuchukvachchasi bor ekan. Biroq qorong'i tushganda kulba ichini yoritgani sho'rlik cholning loaqal bir qora jinchirog'i ham yo'q ekan.

Kunlarning birida Pavel bobo o'rmon yalangligida otarining orqasidan sudralib yurganida birdan chiyillagan ovoz eshilibdi. Xoh ishonib, xoh ishonmang, xuddi birov kirki chalib chaqirayotgandek bo'libdi. Buning ustiga ovoz shunaqangi achinarli eshilibdiki!

Pavel bobo o'rmonga kiribdi, atrof-tevarakka ko'z yugurtiribdi. Qarasa, daraxtlar yonayotganmish, shoxlar chasirlarmish. Bir chala yongan to'nka ostidagi olovda esa olabula kaltakesak jon holatda tipirchilar va ingichka ovozda qichqirar emish. Cholga ko'zi tushib, kaltakesak yalina boshlabdi:

-Hoy cho'pon, xudo xayringizni bersin, meni olovdan qutqaring!

-Jon deb qutqarar edim-u, olovga kirgani qo'rqaman-da, oyog'imni kuydirib olsam-chi, — deb javob qaytaribdi chol.

-Unda tayog'ingizni menga uzata qoling, men uchidan tutaman, siz meni tortib olasiz.

Pavel bobo o'zining uzun cho'pon tayog'ini kaltakesakka uzatibdi, u tayoq uchiga mahkam chirmashibdi-da, chol uni olovdan sug'urib olibdi. Kaltakesak yerga tushib, asta-sekin yura boshlab, debdi:

-Endi bu yaxshiligingizni qaytarishim kerak. Orqamdan yuring.

-Sen menga nima berasan? — so'rabdi Pavel bobo qiziqsinib.

-Men kaltakesaklar shohining qizi bo'laman, — javob beribdi kaltakesak. — Otam, kaltakesaklar shohi, chuqur qorong'i g'orda yashaydi. Uning boshida toj bor, o'sha tojda to'qqiz dona bebaho tosh bor. Toshlar bamisoli quyoshday charaqlab turadi. O'sha toshlardan birini sizga in'om etaman.

Kaltakesak o'tloqdan daryo tomon o'rmalab ketibdi, chol esa uning orqasidan ergashibdi. Yura- yura ular g'orga yetib kelishibdi.

-Siz shu yerda kutib turing, men toshni olib kelaman, — debdi kaltakesak.

Pavel bobo yerga o'tiribdi. Qorong'i tushib qolgan ekan. Kaltakesak toshga ketganidan bu yog'iga esa butunlay qorong'ilik cho'kibdi. Nihoyat og'ziga bebaho toshni solib olgancha yugurib kelayotgan kaltakesak ko'rinibdi. U g'ordan chiqar-chiqmas butun tevarak-atrof charog'on bo'lib ketibdi. Daraxtlardagi qushlar qanot qoqishib, chug'ur-chug'ur qila boshlashibdi — tong otib quyosh chiqdi deb o'ylashibdi-da.

-Mana o'sha tosh, oling, — debdi kaltakesak, — endi uyga shoshiling. Uyga borib uni yerga uch marta urasiz-da, aytasiz: «Oldimda falon-falon narsalar muhayyo bo'lsin!» Nima istagan bo'lsangiz, oldingizda namoyon bo'ladi.

Pavel bobo yaltiroq toshchani qo'liga olib, u yoq-bu yog'ini aylantirib tomosha qila boshladi — toshcha yovvoyi yong'oqdan katta emas ekan — so'ng to'rvasiga solibdi-da uyiga yo'l olibdi. Otarini qishloqqa haydab kelganida mushukcha bilan kuchukchasi ostonada cholning yo'liga ko'zlari to'rt bo'lib o'tirgan ekan. Chol qo'ylarni qo'raga qamab qo'yibdi, so'ng uyiga kiribdi-da, toshchani olibdi. Toshcha shunaqangi charaqlabdi-ki, kulba ichi kunduzday yorishib ketibdi. Kuchukcha bilan mushukcha hatto panjalari bilan ko'zlarini to'sib olishibdi — bunaqada ko'zni oldirib qo'yish hech gap emas-ku!

Ovqatlanib bo'lib Pavel bobo shunday debdi:

-Toshchadan men tag'in nima ham so'rar edim? Bisotimda hech qanday kamchilik bo'lmasa — uyim ham bor, qo'ylarim ham bor, pishlog'im ham bor. Endi esa yoppa-yorug'da ovqatlanayapman ham!

Pavel bobo uxlagani yotibdi. Yotibdi, yotibdi, sira ko'zi ilinmabdi. Shunda u o'y sura boshlabdi: «Darvoqe, nega toshchani sehrini bir qur sinab ko'rmadim o'zi? Baribir undan biror narsa so'rasam bo'larmidi. Nima so'rasam ekan? Nima so'rasam?.. Ha-ha, shohona oq saroy so'rayman».

Chol o'rnidan turib, tokcha oldiga boribdi, toshcha o'sha yerda charaqlab turar ekan. Pavel bobo toshchani qo'liga olib, uch marta yerga uribdi va debdi:

-Shohona oq saroy bino qil!

Shu gap og'zidan chiqar-chiqmas kulba bir tomonga surilib, allaqayoqqa g'oyib bo'libdi, uning o'rnida esa hayratomuz shohona oq saroy qad ko'taribdi. Xobgohining devorlari oynavand, idish-tovoqlari oltindan, stol va stullari fil suyagidan emish. Chol hayrat ichida xonalarni birma-bir aylanib chiqibdi, hamma joyini tomosha qilibdi, so'ng yumshoq parqu o'rindiqqa yonboshlabdi, toshchani esa qo'yniga solib qo'yibdi.

Nima bo'libdi-yu, o'sha kuni kechqurun qo'shni cho'pon Ivan cholnikiga mehmon bo'lib kelib qolibdi.

-Sog'-omonligingni bilib, bir hol so'ray deb kelgan edim-da, — debdi Ivan. — Birpas gurunglashib o'tirsak o'tiribmiz-da, birodar. Negadir shu kunlarda uyqum qochgan... E-ha, bu qanaqasi, o'ngimmi yo tushimmi? Ko'zlarimga ishonmayapman! Bu shohona saroyini senga kim qurib berdi?

-Toshcha qurib berdi.

-Toshcha qurib berdi? Qani-qani, bir ko'rsat-chi menga ham.

Pavel bobo qo'yniga qo'lini tiqib toshchani olibdi va qo'shnisiga ko'rsatibdi. Ivan toshchani aylantirib ko'rib:

-Ajabo, zig'irdekkina shu tosh qanday qilib bunaqa shohona qasrni qurib berdi? — debdi.

Pavel bobo bular qanday bo'lganini bir boshdan gapirib beribdi va toshchani qaytib qo'yniga solibdi. Qo'shnilar anchagacha gaplashib o'tirib, oxiri zerikishibdi.

-Bugun shu yerda yotib qolaqol, Ivan, — debdi Pavel bobo.

-Joy bormi? — debdi Ivan.

-Yonimda, mana bu qanotda yota qolarsan, — deb yonidan joy ko'rsatibdi chol.

Ivan uning yonida cho'zilib cholning uyquga ketishini poylay boshlabdi. Pavel boboning ko'zi ilinishi hamon Ivan asta uning qo'yniga qo'lini suqib toshchani olibdi va yerga uch marta urib, shunday debdi:

-Oldimga to'rt bahodirni keltiring, mana bu saroyini ko'tarib, Dunay ortiga olib borib qo'yishsin.

Bu so'zlarni aytar-aytmas uning oldida to'rt bahaybat pahlavon yigit paydo bo'libdi va saroyini ko'tarib jo'nab qolishibdi. Ivan toshchani olib ularning izidan ketibdi, Pavel bobo yotgan joyida qolaveribdi. Ertalab uyg'onib qarasa, yo alhazar, tushimi bu yo o'ngimi? Na saroydan, na sehrli toshchadan nom-nishon bormish. O'sha-o'sha sopol tomli kulbasi-yu, bo'sag'ada ozg'in mushukchasi bilan kuchukvachchasi mung'ayib qarab turganmish. Chol alamidanda achchiq-achchiq yig'labdi. Qo'ylarmng ham unga ichlari achib, g'amgin ma'ray boshlashibdi. Mushukcha kulcha bo'lib yotib olibdi, kuchukcha ich-ichidan kuyib ming'illabdi. Shunda mushukcha kuchukchaga qarab debdi:

-Yur, bobomizning toshchasini olib kelgani Dunay ortiga boramiz.

-Ketdik, — debdi hozirjavoblik bilan kuchukcha.

Ular yo'lga tushishibdi. Ketaverishibdi, ketaverishibdi, butun Dunay pasttekisligini kesib o'tishibdi. Dunay sokin oqim bilan oqib yotgan bepoyon vodiYGacha yetib borishibdi.

-Men suzishni bilaman, — debdi kuchukcha, — sen esa suzolmaysan. Orqamga chiq, men seni narigi qirg'oqqa olib o'tib qo'yaman.

Mushukcha sherigining ustiga minib olibdi va ular Dunayning narigi sohiliga o'tib olishibdi. Yana biroz yurishgan ekan, saroyga duch kelishibdi. To qorong'i tushguncha bog'da sayr qilib turishibdi, keyin lang ochiq turgan derazadan ichkariga oshib kirishibdi, Qarashsa, Ivan parqu o'rinda uyquni urayotibdi, toshni bo'lsa og'ziga, tilining tagiga tashlab olganmish.

Toshni uning og'zidan qanday olamiz? — debdi kuchukcha.

-Hozir aytaman, — javob qilibdi mushukcha. — Men dumimni qalampirdonga tiqib,

Ivanning burnini qitiqlayman. Ivan chuchkirib, og'zidan toshcha otilib tushadi. Mushukcha qanday aytgan bo'lsa, xuddi shunday qilibdi, Ivan chuchkirib, og'zidan tosh tushib ketibdi. Mushukcha chaqqonlik bilan toshni olibdi-yu, qochib qolibdi. Kuchukcha uning ortidan chopibdi. Chopa-chopa ular Dunayga yetib kelishibdi. Mushukcha kuchukchani minib, ular daryodan suzib ketishibdi. Daryoning o'rtasiga yetganida kuchukcha debdi:

-Rosa g'aroyib toshcha ekanmi! Menga berchi, bir ko'ray.

-Hozir to'g'ri kelmaydi, — debdi mushukcha. — Suvga tushirib yuborasan. Qirg'oqqa chiqib olaylik, bemalol ko'raverasan.

-Hozir ko'rmoqchiman, — deb irillabdi kuchukcha o'jarligi tutib, — bo'lmasa seni orqamdan itqitib yuboraman. Suvga tushib, g'arq bo'lasan.

Mushukcha qo'rqib ketib:

-Ma, ma, ko'ra qol, — deb toshchani unga uzatibdi.

Kuchukcha panjasini uzatibdi, biroq toshchani ushlayolmay suvga tushirib yuboribdi. Jonivorlar qirg'oqqa chiqib, yig'lay boshlashibdi.

Naridan bir baliqchi o'tib qolibdi, ularni ko'rib so'rabdi:

-Nimaga yig'layapsizlar?

-Qornimiz och, — deb javob beribdi mushukcha.

Baliqchi qarmog'ini suvga tashlab katta bir baliqni tutibdi va mushukcha bilan kuchukchanning oldiga tashlabdi.

-Olinglar, — debdi baliqchi, — endi yig'lamanglar.

Mushukcha bilan kuchukcha baliqni butalar orasiga olib borib yeya boshlashibdi. Shunda, bilasizmi, nima bo'libdi? Baliqning qornidan haligi toshcha chiqibdi. Aslida bunday bo'lgan ekan: baliq suvda og'zini kappa-kappa ochib turgan ekan. Toshcha suvga tushganda hap etib yutib yuborgan ekan.

Jonivorlarning qanchalik quvonganini bir ko'rsangiz edi! Dunay pasttekisligidan ular shunaqangi chopib ketishibdiki, birpasda Pavel boboning qo'rasiga yetishibdi. Qarasalar, chol boyoqish yerda yotib olib yum-yum yig'layotganmish. Mushukcha bilan kuchukcha toshchani to'g'ri cholning boshini mo'ljallab itqitishgan ekan, toshcha cholning ko'ziga borib tegibdi. Pavel bobo toshchani tutib, yerga uch marta uribdi-da, qichqirib debdi:

-Hoy Ivan, oldimga kel, odatdagiday emas, qop ichida kel!

Bu gap og'zidan chiqar-chiqmas qop paydo bo'libdi, ichida — Ivan. Shunda Pavel bobo tayog'ini olibdi-da, qopni savalay ketibdi. Boplab uch-to'rt musht tushiribdi-da, qopni yechib, Ivanni haydab yuboribdi. Keyin toshchani to'rvasiga joylab, debdi:

-Menga hech qanaqa saroy-paroy kerak emas, baribir Ivan o'g'irlab ketadi. Men uning odatini yaxshi bilaman!

So'ng Pavel bobo qo'ylarini haydab ketibdi. Shundan beri u har kuni kechqurun toshchani tokchaga qo'yib qo'yar va toshcha kulbani charog'on qilib turar ekan. Pavel bobo olamdan o'tgandan keyin esa kaltakesak yugurib kelibdi-da, toshchani olib ketibdi.

“Oltin shahzoda” kitobidan